

**BIOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc. 02/30.12.2019.K/B.37.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BIOORGANIK KIMYO INSTITUTI

XALBEKOVA XULKAR UMMATKULOVNA

**O‘ZBEKISTONNING ISTIQBOLLI GALOFITLARINI
MIKROKLONLASH, SHO‘RLANGAN TUPROQLARGA
MOSLASHTIRISH VA KIMYOVIY TARKIBINI TADQIQ QILISH**

**02.00.10 – Bioorganik kimyo
03.00.12 – Biotexnologiya**

**BIOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Biologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc) по
биологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of science (DSc)
on biological sciences**

Xalbekova Xulkar Ummatkulovna

О‘zbekistonning istiqbolli galofitlarini mikroklonlash, sho‘rlangan tuproqlarga moslashtirish va kimyoviy tarkibini tadqiq qilish..... 3

Халбекова Хулкар Умматкуловна

Микроклонирование и адаптация к засоленным почвам перспективных галофитов, произрастающих в Узбекистане и исследование их химического состава 29

Khalbekova Hulkar Ummatkulovna

Microcloning and adaptation to saline soils of promising halophytes growing in Uzbekistan and study of their chemical composition..... 56

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 60

**BIOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc. 02/30.12.2019.K/B.37.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BIOORGANIK KIMYO INSTITUTI

XALBEKOVA XULKAR UMMATKULOVNA

**O‘ZBEKISTONNING ISTIQBOLLI GALOFITLARINI
MIKROKLONLASH, SHO‘RLANGAN TUPROQLARGA
MOSLASHTIRISH VA KIMYOVIY TARKIBINI TADQIQ QILISH**

**02.00.10 – Bioorganik kimyo
03.00.12 – Biotexnologiya**

**BIOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2025.1.DSc/B157 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Bioorganik kimyo institutida bajarilgan

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.biochem.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim tarmog'ida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchilar:

Ziyavitdinov Jamolitdin Fazlitdinovich
kimyo fanlari doktori, professor

Tashmuhamedova Shoxista Sabirovna
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Tilyabayev Zoitjon
biologiya fanlari doktori, professor

Nasmetova Saodat Mamajanovna
biologiya fanlari doktori

Muxamedov Rustam Sultonovich
biologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Bioorganik kimyo instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019. K/B.37.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «26» iyun soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100125, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek ko'ch., 83. Tel.:71-262-35-40, faks: (99871) 262-70-63.

Dissertatsiya ishi bilan Bioorganik kimyo instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (262 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100125, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek ko'ch., 83. Tel.:71-262-35-40, faks: (99871) 262-70-63, e-mail: shsha@mail.ru).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «11» iyun da tarqatildi.
(2025 yil 11 iyun da 6/1 raqamli restr bayonnomasi.)



Sh.I. Salixov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash raisi, b.f.d., akademik

N.R. Xashimova
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.d.

M.B. Gafurov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, k.f.d., professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda global iqlim o'zgarishlari qurg'oqchilik, qum, tuz bo'ronlari, tuproq degradatsiyasi va sho'rlanish darajasining salbiy ta'siri keskin oshib bormoqda. Bu muammolar aholining hayot faoliyatiga, qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari sohalarida qator muammolar ko'lami ortishiga sabab bo'lmoqda. Shu boisdan cho'l hududlarida tuproq-iqlim sharoitiga mos, suv tutish qobiliyatiga ega, tuproqdagi tuz miqdorini kamaytiradigan yangi avlod biotexnologik o'simliklar navlarini *in vitro* sharoitida ko'paytirishning ilg'or biotexnologik yo'riqnomalarini ishlab chiqish va ularni tashqi muhit stress omillarga bardoshli mikroko'chatlarini *ex vitro* moslashtirish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda duynoda cho'l o'simlik resurslaridan oqilona foydalanishning yangi ilmiy strategiyalari zamonaviy biotexnologiya sohasining taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu borada yangi istiqbolli yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borishni talab etmoqda. Jumladan, *in vitro* sharoitida istiqbolli o'simliklarning biotexnologik navlarini yaratish asosida genetik jihatdan samarali katta hajmda mikroko'chatlar klasterlarini yaratish; regenerantlarni o'stirish uchun yaroqli bo'lgan steril va infeksiyalardan xoli material olish; novdalar regeneratsiyasi va rivojlangan ildiz tizimi shakllanishini ta'minlaydigan mikroko'paytirish uchun maqbul sharoitlarni tanlash; tuproq sharoitiga o'tkazishda ularning muvaffaqiyatli yashovchanligini ta'minlaydigan *ex vitro* moslashuv usullarini ishlab chiqish borasida izlanishlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda Orol dengizi qurishi jarayonining mintaqa iqlim sharoitiga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha Respublikamizda 2017-yildan hozirgi kungacha Orol dengizining qurigan tubida saksovul ko'chatlari va urug'larini ekish ishlari faol olib borilmoqda va 3,5 mln gektar hududda yashil makonlar yaratilib, yuqori natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmonida¹, xususan, 2025-yil "Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot yili"da Nukus, Buxoro, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlarining cho'l hududlarida sho'rga va qurg'oqchilikka chidamli o'simliklar (galofitlar) bog'larini va "*in vitro*" laboratoriyalarini tashkil etish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan. Bu borada istiqbolli mahalliy galofit o'simliklarning stress omillarga bardoshli yangi avlod biotexnologik *in vitro* kulturasini Milliy biobankini shakllantirish va undan alternativ dorivor o'simliklar assortimentini yaratish hamda Orolning qurigan tubida fitoremidiant "yashil bog'lamlar" barpo etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-fevraldagi PQ-130-sonli "Orol madaniyat sammitini yuqori saviyada o'tkazish to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-fevraldagi 90-sonli "Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus tumanida galofit o'simliklari botanika bog'ini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabrdagi PF-199-sonli "Respublikada yashillik

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.

darajasini yanada oshirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlash tadbirlari to’g’risida”gi qarori va Farmonlari ushbu sohada qabul qilingan boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishida olib borilgan tadqiqotlar muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O’zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo’jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo’nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo’yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi².

Istiqbolli galofitlarni mikroklonlash *in vitro*, sho’rlangan tuproqlarga moslashtirish *ex vitro*, fitoremidiyasiyada qo’llash va kimyoviy tarkibini aniqlash, polifenollarining biologik faolliklarini tadqiq qilish, ular asosida alternativ dorivor o’simliklar va yangi avlod biotexnologik navlar yaratishga yo’naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, Qurg’oqchil hududlarda qishloq xo’jaligini tadqiq qilish xalqaro markazi (ICARDA), Arizona universiteti (AQSH), Leybnis nomidagi agrolandshaft tadqiqot markazi (ZALF) (Germaniya), Sho’r suvli qishloq xo’jaligi xalqaro markazi (Birlashgan Arab Amirliklari), Tokio qishloq xo’jaligi va texnologiya universiteti (Yaponiya), Xitoy Fanlar akademiyasining Sinszyan geografiya va ekologiya instituti, Ozuqa ishlab chiqarish va agroekologiya federal ilmiy markazi (Rossiya), Botanika va fitointroduksiya instituti (Qozog’iston) kabi yetakchi ilmiy markazlarda olib borilmoqda.

Galofit o’simliklarni madaniylashtirish *in vitro*, stress muhitga moslashtirish *ex vitro*, kimyoviy xususiyatlarini, farmakologik va ularning biologik faolliklarini aniqlashga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida bir qator, jumladan, quyidagi natijalar olingan: sho’r suv yordamida sug’orish asosida qimmatli yem-xashak, dorivor va manzarali o’simliklar landshaftlari yaratilgan (Ben-Gurion universiteti, Isroil), ozuqabop navlari yaratilgan (Arizona universiteti, AQSH), *in vitro* usulda mikroklonlash, boshlang’ich o’simlik eksplantini sterillash va ko’paytirish sharoitlari maqbullashtirilgan (Polsha Fanlar akademiyasining O’simliklar genetikasi instituti, Polsha), *in vitro* sharoitida o’simliklar metabolitlarini ishlab chiqarish, ularni tijoratlashga yo’naltirilgan texnologik platformalar yaratilgan dunyodagi yetakchi farmatsevtika kompaniyalari Thomas Scientific, Sigma-Aldrich, HiMedia Laboratories, Caisson Labs, Melford Laboratories, Alpha Laboratories, PlantMedia, kallus to’qimasi hosil bo’lishi va proliferasiyasida fitogormonlar kombinatsiyalari ishlab chiqilgan (Misr fan va texnologiya markazi, Misr), Orol bo’yi o’simliklarini tibbiyotda qo’llash va ularning biologik faolliklari aniqlangan (Botanika instituti, Xitoy Fanlar akademiyasi, Xitoy), oqsil, vitaminlar miqdori va polifenollar identifikatsiyalangan (O’simliklar biologiyasi va biotexnologiyasi instituti, Qozog’iston) Janubiy Orolning turli hududlarida tarqalgan 200 dan ortiq istiqbolli turlaridan laboratoriya sharoitlarida

² Dissertatsiya mavzusi bo’yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi www.sciencedirect.com, www.researchgate.net, www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles va boshqa manbalar asosida tayorlangan.

biokimyoviy, kimyoviy, molekulyar-biologik va biotexnologik tahlillarni amalga oshirish uchun biomateriallari (ildiz, poya, barg, meva va urug‘lari) yig‘ilgan (O‘z RFA Bioorganik kimyo instituti).

Dunyoda galofit o‘simliklarning *in vitro* sharoitida biotexnologik navlarini yaratish, sho‘rlangan tuproqlarga moslashtirish va kimyoviy tarkibini tadqiq qilish bo‘yicha qator ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan, stress omillarga chidamli yangi *in vitro* genetik bankini yaratish, tuproqlarni tuz va og‘ir metallardan tozalashda (fitoremidatsiya), biologik faol moddalarni identifikatsiyalash, polifenollarning biologik faolliklarini aniqlash, *ex vitro* usulida yetishtirish moslashuvi uchun ilg‘or texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga qo‘llash.

Muammoninig o‘rganilganlik darajasi. Sho‘rlangan hududlarda galofitlarni yetishtirishga oid tadqiqotlar I.Olerly, B.Khan, M.Gull, C.Keiffer, F.Milano, M.Colette, L.Chen, Ch.Linlin, C.Dong, D.Han kabi xorijlik olimlar tomonidan olib borilmoqda. Shuningdek, so‘nggi yillarda *Chenopodiaceae* oilasiga mansub *Halocnemum strobilaceum*, *Salicornia europaea*, *Suaeda* va *Atriplex* turlarini *in vitro* usulida ekish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Biologik faol moddalar miqdori yuqori bo‘lgan o‘simliklarning biotexnologik liniyalarini olish Al-Khalifan, O.Aldahhak, F.Alu, P.Birnbaum va boshqalarning ishlarida ham ko‘rsatib o‘tilgan. B.Zolfaghari rahbarligida *Chenopodiaceae* oilasiga mansub galofit o‘simliklarning regenerant va kallus to‘qimalaridan olingan ekstraktlarning *HeLa* liniyasi saraton hujayralariga qarshi ta’siri o‘rganilgan. Natijada differensial (tabaqalashgan) hujayralar ekstraktlari kuchli sitotoksik ta’sirga va antifungal faollikka ega ekanligi aniqlangan.

So‘nggi o‘n yillikda xitoylik olimlar Y.Oyunbileg, Q.Van, Y.Jiang, X.Xiao va boshqalarga *Chenopodiaceae* oilasi vakillari tadqiqot obyekti sifatida katta qiziqish uyg‘otgan bo‘lib, ular tomonidan kallus kulturalarining kimyoviy tarkibini to‘liq tadqiq qilish va biologik faol moddalarini ajratib olish bo‘yicha izchil tajribalar olib borilgan. Turk olimlari A.Ozusag‘lam, M.Erzengin tomonidan *Chenopodiaceae* oilasiga mansub *Petrosimonia* n-geksan ekstraktining antioksidantlik faolligi ham o‘rganilgan bo‘lib, uning IC₅₀ konsentratsiyasi 83,56 mkg/ml bo‘lganda DFPG radikallarini tutib qolish qobiliyatini aniqlangan.

Respublikamizda olib borilayotgan izlanishlar jarayonida Orol dengizining qurigan tubida galofitlarga ixtisoslashgan o‘simliklar yetishtirishning ilg‘or yondashuvlari ishlab chiqilmoqda, bu kabi tadqiqotlar “Orolbo‘yi” (Qorao‘zak tumani) xalqaro innovatsiyalar markazi negizida jadal ravishda olib borilmoqda. Orolbo‘yi hududlarida istiqbolli galofit o‘simliklarni aniqlash, yangi alternativ dorivor o‘simliklar hajmini kengaytirish, ular tarkibidagi biologik faol moddalarni tadqiq qilish bo‘yicha ilmiy izlanishlar Bioorganik kimyo instituti, O‘rmon xo‘jaligi ilmiy-tadqiqot instituti, Botanika institutlarida akademik Sh.I.Salixov, akademik A.S.To‘rayev, akademik K.Sh.Tojiboyev, professor A.Rabbimov, professor A.G.Bekchanovlar rahbarligida olib borilmoqda.

Ammo O‘zbekistonning turli sho‘rlangan, suvsiz hududlarida tarqalgan, *Chenopodiaceae* oilasining istiqbolli o‘simliklarining *in vitro* biotexnologiyasi,

kimyoviy tarkibini o'sish fazalari bilan bog'liq ravishda biologik faolliklarini hamda o'simliklarning Orolqum muammolarini bartaraf etishda qo'llanishiga oid ilmiy tadqiqotlar mavjud emas.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Bioorganik kimyo instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining AL-632204135 "Orolbo'yida noan'anaviy sho'r va qurg'oqchilikka chidamli ekinlarning istiqbolli galofitlarini ekish va ko'paytirish" (2022–2023-y.) mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonning *Chenopodiaceae* oilasiga mansub istiqbolli galofit o'simliklarni *in vitro* kulturasiga kiritish, biotexnologik xomashyo va hujayra kulturalari tarkibidagi biologik faol moddalarni aniqlash hamda polifenollarning kimyoviy tarkibini va biologik faolligini o'simliklarning o'sish sharoitiga bog'liqligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Chenopodiaceae oilasiga mansub galofitlarning o'sish hududiga bog'liq holda reproduktiv organlarining shakllanish xususiyatlarini o'rganish;

O'zbekistonning ekstremal sharoitlarida reproduktiv a'zolari parametrlarining biologik xususiyatlarini aniqlash;

maqbul sterilizatsiya vositalarini tanlash, o'simlik eksplantlarini tayyorlash, va galofitlarni mikroklonal ko'paytirish uchun ma'qul ozuqa muhiti tarkibini maqbullashtirish;

O'zbekistonning turli cho'l hududlaridagi tabiiy namunalarda, shuningdek, regenerantlarning qiyosiy fitokimyoviy tahlillar (og'ir metallar, erkin aminokislotalar, uglevodlar va vitaminlarni aniqlash) o'tkazish;

tabiiy va regenerant o'simliklar tarkibidagi fenol birikmalarini ajratib olish hamda YSSX va LC-MS usullari bilan identifikatsiyalash;

ajratilgan polifenollarning antifungal, antibakterial va antioksidanlik faolliklarini aniqlash;

Halocnemum strobilaceum turining tabiatdan olingan namunasi va regenerant o'simliklarining tarkibidan ajratilgan polifenollarning qiyosiy antiproliferativlik tahlilini o'tkazish;

regeneratsiya qiluvchi o'simliklar biomassasi ko'payishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan fitoregulatorlar bilan boyitilgan ozuqa muhitida yetishtirishning yo'riqnomalarini ishlab chiqish;

Orol dengizi tubi tuprog'iga o'simliklarni *ex vitro* usulida yetishtirish uchun biotexnologik namunalarni tanlash, moslashuvi uchun ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga qo'llash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Sirdaryo, Jizzax, Buxoro viloyatlari va Orolqum hududlarida tarqalgan *Chenopodiaceae* oilasiga mansub 24 turdagi galofitlarning o'sish tuprog'i, poya, barg, meva, urug'lari hamda *in vitro* sharoitidagi mikronihollari olingan.

Tadqiqotning predmetini *in vitro* sharoitida istiqbolli galofitlarning birlamchi eksplantlari, og'ir metallar, erkin aminokislotalar, uglevodlar, vitaminlar, shuningdek, o'sish hududlaridagi tabiatdan olingan o'simlik namunalari va

regenerantlardan ajratilgan polifenol birikmalar, *ex vivo* usulida Orolqum tuproqlaridagi mikroko‘chatlarini moslashtirish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida fizik-kimyoviy (YSSX, neytron aktivatsion tahlili, xromato-mass-spektrometriya, kukunli lazer difraktometriyasi), biotexnologik (*in vitro*, *ex vitro*), biologik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor *Chenopodiaceae* oilasi vakillarining urug‘chiligini tashkil etishda samarali agrobiologik va agrotexnik tamoyillari ishlab chiqilgan;

19 tur galofitlarni sterilizatsiyalashning jadal kombinatsiyalari ishlab chiqilib, *in vitro* sharoitida sifatli regenerant o‘simliklar yaratishning samarador yondashuv ekanligi isbotlangan;

Chenopodiaceae oilasining istiqbolli 19 turdagi galofitlaridan regenerant o‘simliklarni jadal o‘stirish texnologiyasiga asoslangan maxsus yo‘riqnomalar ishlab chiqilgan;

12 turdagi og‘ir metallarning miqdori o‘ganilib, 13 tur o‘simlik fitoremediatsiyada va 11 tur biologik faol qo‘shimchalar yaratishda foydali o‘simliklar guruhlariga ajratilgan;

O‘zbekistonning turli cho‘l hududlarida tarqalgan 12 tur o‘simlik 300-500 Mm NaCl ozuqadagi regenerantlarida osmolitlarning faol sintezlanishi *in vitro* tajribalarda isbotlangan;

Halocnemum strobilaceum gullash fazasida 25 ta, nihollarda – 7 ta, MS – 4 ta hamda stress muhitda yetishtirilgan regenerantlarda 13 xil tibbiyotda muhim bo‘lgan polifenollar identifikatsiyalangan;

galofitlar polifenollarining yig‘indisi gramm-musbat va gramm-manfiy bakteriyalar o‘shishiga antagonistik ta’siri hamda DFGP erkin radikalini so‘ndirishi aniqlangan;

H. strobilaceum turning regenerant o‘simliklari polifenollar yig‘indisi *HeLa* saraton hujayralariga 27% antiproliferativlikni namoyon etishi isbotlangan;

Orol dengizi tubida N 44°7'36,84, E 58°50'39,25 koordinatalarida mikroko‘chatlarining 47 % moslashuvi natijasida, Orolqumda birlamchi yashil qoplamalar yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Chenopodiaceae oilasiga mansub istiqbolli turlari uchun *in vitro* sharoitida mikroklonlashning iqtisodiy samaradorligi baholangan va maxsus biotexnologik yo‘riqnomalari ishlab chiqilgan;

O‘zbekistonning istiqbolli galofitlarini hujayra seleksiyasi texnologiyasi asosida yuqori sho‘rlanishga bardoshli yangi biotexnologik kolleksiyasi yaratilgan;

Orol dengizi tubining “0” nuqtasi sharoitlariga biotexnologik usullar asosida olingan mikroko‘chatlar moslashganligi, ularning shu hududda donor o‘simliklar kabi ko‘payish salohiyati aniqlangan;

Orol dengizi tubining “0” nuqtasiga O‘zbekistonning turli ekologik hududlaridan yig‘ilgan 15 turdagi galofit o‘simliklar urug‘lari ekilgan va ular orasida Mirzacho‘l vohasi o‘simliklar urug‘laridan foydalanish tavsiya etilgan;

in vitro sharoitda o‘simlik to‘qimalarida biologik faol moddalarning tabiiy manbai sifatida Mirzacho‘l vohasi va Orolbo‘yi o‘simliklaridan foydalanish uchun tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olingan hosilalarni tadqiq qilishda zamonaviy fizik-kimyoviy va biologik tadqiqot usullaridan foydalanilganligi; tadqiqot natijalarining respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyalarda muhokama etilganligi, tajribalar natijalarini O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tan olingan mahalliy va xalqaro ilmiy jurnallarida chop etilganligi, amaliy natijalarni vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati *in vitro* sharoitda *Chenopodiaceae* oilasiga mansub istiqbolli ozuqabop va dorivor 19 turdagi galofitlarning mikroklonlar klasterini yetishtirishga ixtsoslashgan biotexnologik tadqiqotlar hamda qiyosiy ravishda osmolitlarning to‘planish dinamikasi o‘shish hududi, rivojlanish fazalari va *in vitro* sharoitida maqbullastirilgan ozuqalar tarkibiga bog‘liqligining to‘liq sikli bo‘yicha ishlanmalarning sinovdan o‘tkazilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, biotexnologiyaning to‘qimalar seleksiyasi usuli asosida biologik faol moddalarning muqobil tabiiy manbayi sifatida regenerat o‘simliklari biomassasidan foydalanish hamda cho‘l hududlarda og‘ir metallarni fitoremediasiya va fitomelioratsiya ishlarini olib borish bo‘yicha ishlab chiqilgan yondashuvlar tuproqlarning tozalanishiga va Orol dengizining qurigan tubida yashil plantatsiyalar yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. O‘zbekistonda o‘sadigan istiqbolli galofitlarning mikroklonlash va sho‘rlangan tuproqlarga moslashishini o‘rganish va ularning kimyoviy tarkibini tadqiq qilish bo‘yicha ilmiy-amaliy natijalar asosida:

yaratilgan galofitlarning biotexnologik liniyalaridan Respublikada cho‘l o‘rmon xo‘jaligini barpo etishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2024-yil 4-yanvardagi 03-03/3-9-son ma‘lumotnomasi). Natijada O‘zbekistonning cho‘l hududlarida kuzgi yaylov plantatsiyalarini rivojlantirish imkonini bergan;

galofitlarning reproduktiv organlarida yuqori stress omillar ta‘sirida sodir bo‘ladigan barcha jarayonlarning texnologik parametrlari bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar 2023-yilda “Orol dengizi havzasini ko‘kalamzorlashtirish” dasturini amalga oshirishda qo‘llangan (O‘zbekiston Ekologik partiyasining 2023-yil 27-dekabrda 01/435-son ma‘lumotnomasi). Natijada Orol mintaqasida yerlarning meliorativ holatini tiklash va cho‘l biosenozlarini saqlash imkonini bergan;

ex vitro usulida olingan ko‘chatlar Orol dengizi “0” nuqtadagi tajriba maydoniga ekib ko‘paytirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 9-yanvardagi 4/17-9/1-2-719-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada Mirzacho‘l vohasidan to‘plangan galofit o‘simliklarning urug‘lik zahiralari Orol dengizi “0” nuqtada biotexnologik yopiq ildizli mikroko‘chatlar asosida ko‘kalamzorlash imkonini bergan;

Orol dengizi “0” nuqtada galofit o‘simliklar urug‘ini ekishning agrobiologik usullari asosida *Chenopodiaceae* oilasining 15 turi ko‘paytirilib, joriy qilingan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasining 2024-yil 15-fevraldagi 01/116-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada Orolqum mintaqasi uchun yashil belbog‘lar yaratishga seleksiya-urug‘chilik ishlarini olib borish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya tadqiqoti bo‘yicha jami 53 ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 23 ta maqola, jumladan, 15 tasi respublika va 8 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, yettita bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 223 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati, maqsad va vazifalari asoslab berilgan, tadqiqotning obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlanish yo‘nalishiga muvofiqligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etish asoslari keltirilgan, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning “Sho‘rlangan yerlar unumdorligini tiklash, ularning o‘rnida istiqbolli galofit o‘simliklar plantatsiyalarini barpo etish” deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar va muammoning o‘rganilganlik darajasi batafsil tahlil qilingan, sho‘rlangan yerlar unumdorligini galofit o‘simliklar yordamida tiklash, oziq-ovqat, chorva ozuqasi, farmatsevtika sanoati uchun xomashyo, shuningdek, biomassa va bioyoqilg‘i ishlab chiqarish uchun foydalanilayotgan ushbu o‘simliklar plantatsiyalarini barpo etish bo‘yicha so‘nggi yillardagi tadqiqot natijalari keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Istiqbolli galofitlarni *in vitro* sharoitida mikroklonlash, *ex vitro* tashqi muhitga moslashtirish va kimyoviy tarkibini tadqiq qilish usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotning obyekti *Chenopodiaceae* (*Amarantaceae*) oilasiga mansub 24 tur olingan. Dissertatsiya ishini bajarishda o‘simliklarni *in vitro* sharoitida ko‘paytirishning biotexnologik usullari, *ex vitro* moslashtirish, texnik (ekstraksiya, filtrlash, haydash, liofil quritish), xromatografik (YUSSX), fizik-kimyoviy tahlil usullari: xromato-mass-spektrometriya LC-MS qo‘llandi. Antibakterial va antifungal faollik lunka-diffuzion agar usulida, antioksidant faollik DFPG (1,1-difenil-2-pikrilgidrazil) yordamida o‘rganildi. [3-(4,5-dimetiltiazol-2-il)-2,5-difenil-2H-tetrazoliy bromid] (MTT) sitotoksikligini aniqlashda biokimyoviy usul hamda statistik usullaridan foydalanilgan.

Dissertatsiyaning “*Chenopodiaceae* oilasiga mansub istiqbolli turlarning *in vitro* sharoitida mikroklonal ko‘paytirish va katta hajmda biomassa olishning biologik imkoniyatlari” deb nomlangan uchinchi bobida Respublikamizning cho‘l hududlari va qurigan Orol dengizi tubini ko‘kalamzorlashtirishning dolzarb muammolaridan biri galofit o‘simliklarning urug‘lik biomaterialining yetishmasligi kabi jarayonlar va ularni hal etishda biotexnologik yondashuvlar orqali ilmiy yechimlar ishlab chiqilgan. Xususan, to‘liq yetilgan urug‘larning yetarli emasligi bu muammoning muhimligini ko‘rsatadi. Shu munosabat bilan o‘rganilayotgan galofitlarning gullash jarayonining sutkalik dinamikasi, urug‘ unumdorligi, urug‘ning unib chiqish biologiyasi tahlil qilindi.


Tadqiqot obyektlarini *in vitro* sharoitida kulturaga kiritish, ozuqa muhiti tarkibini maqbullashtirish orqali steril eksplantlar olish va regenerant o‘simliklarning katta biomassasini olishning natijalari muhokama qilindi. Galofit o‘simliklarning meva hosil qilish biologiyasi va reproduktiv qobiliyatining asosiy masalalarini o‘rganish ushbu oilaga mansub istiqbolli galofit o‘simliklar urug‘chiligining samarali agrobiologik va agrotexnik asoslarini ishlab chiqishga xizmat qildi va *in vitro* usulida ko‘paytirish asosida biotexnologik klaster shakllanishiga imkoniyat yaratdi. Tadqiqot jarayonida turli reagentlar, jumladan, diatsid, simob xlorid, sovunli eritmalar, etil spirtining turli konsentratsiyalardagi suvli eritmaları (70%, 75%, 96%) va Belizna eritmasining har xil suyultirilgan (nisbati 1:10 va 1:20) sinovdan o‘tkazildi. Tajribalar mobaynida 30 daqiqa tiomersal 0,001% eritmasida, 70% etanolda 15-30 daqiqa davomida ushlab turilganda va har bir ishlovdan so‘ng uch marta steril distillangan suvda yuvilgan eksplantlarda eng ijobiy natijalarga erishildi. O‘rganilgan turlarida dastlabki nihollarning shakllanishi kulturalashning 7–15 kun o‘tgach kuzatildi. Nihollar 28 kun mobaynida to‘liq o‘simlik holatida rivojlangandan so‘ng yangi ozuqa muhitiga ko‘chirildi. Mikroqalamchalarni gormonsiz MS muhitida o‘stirish jarayonida regenerantlarda I-II bo‘g‘im oraliqlarida novdalar soni ortib bordi, ammo ildiz tizimida rivojlanish sustlashdi. MS muhitida eksplantlar 5–10 sutka davomida sinxron faollashuvi kuzatildi: yuqorida vegetativ organlar, asosiy o‘q ildiz rivojlandi. Brinchi (passaj) uchun MS, ikkinchi ko‘chirib o‘tkazishda $\frac{1}{2}$ MS + 0,5 mg/l 6-BAP + 0,3 mg/l ISK eng maqbul ozuqa muhiti ekanligi aniqlandi. Shuningdek, yig‘ilgan turlarning urug‘lik materiallarining *in vitro* sharoitida o‘sinh va rivojlanishi bo‘yicha hududlararo solishtirganda, Buxoro va Mo‘ynoqda o‘rganilgan turlarga nisbatan Mirzacho‘lning bionamunalarda ustun ekanligi ma’lum bo‘ldi. Keyinchalik regenerantlarni jadal ko‘paytirish uchun $\frac{1}{2}$ MS + 0,5 mg/l 6-BAP + 0,5 mg/l kinetin va $\frac{1}{2}$ MS + 0,5 mg/l 6-BAP + 0,3 mg/l ISK ozuqa muhitlari sinovdan o‘tkazildi. Ushbu ozuqa muhitida Buxoro va Mo‘ynoqdan yig‘ilgan turlar *in vitro* sharoitidagi nihollar uzunligining qisqarishi ularning ekstremal sharoitlarga moslashganligi bilan bog‘liqligi *in vitro* tajribalarida o‘z tasdig‘ini topdi. Mikroqalamchalarni morfogenetik rivojlantirishda eng maqbul ozuqa $\frac{1}{2}$ MS + 0,5 mg/l 6-BAP + 0,5 mg/l Kin bo‘lib, nobud bo‘lgan regenerantlar soni 12,1% dan 28,7% tashkil etdi. Natijada, *Chenopodiaceae* oilasining biotexnologik kolleksiyasini yaratishda istiqbolli 19 tur uchun maxsus mikroklonal ko‘paytirish yo‘riqnomalari ishlab chiqildi (1-jadval).

1-jadval

Chenopodiaceae oilasiga mansub galofitlarni *in vitro* sharoitida morfogenez jarayonlarining induksiyasi uchun ishlab chiqilgan maxsus biotexnologik yo‘riqnom

O‘simliklar turi		Eksplant tipi	Ozuqa muhiti	Qo‘llangan o‘shish gormonlari		Maqbullashtirilgan ozuqa muhitlari
				sitokoninlar	auksinlar	
Bir yillik o‘simliklar	<i>Climacoptera aralensis</i> (Iljin) Botsch. <i>C. ferganica</i> (Drob.) Botsch. <i>C. affinis</i> (C. A. Mey.) <i>C. transoxana</i> (Iljin) Botsch. <i>C. turgaica</i> (Iljin) Botsch. <i>C. intricata</i> (Iljin) Botsch. <i>C. longistylota</i> (Iljin) Botsch. <i>C. lanata</i> (Pall.) Botsch.	Nihol (o‘simta)	MS	BAP, Kin	IUK	½ MS+0,5 mg/l 6-BAP+0,3 mg/l IUK MS+0,5 mg/l 6- BAP +1,0 mg/l IUK ½ MS+0,5 mg/l 6- BAP +0,5 mg/l Kin
	<i>Suaeda heterophylla</i> (Kar. Et Kir.) Bunge <i>S. paradoxa</i> (Bunge) <i>S. microsperma</i> (C. A. Mey.) Fenzl <i>S. altissima</i> (L.) Pall. <i>S. arcuata</i> Bunge	Nihol (o‘simta)	MS	BAP, Kin	IUK	½ MS+0,5 mg/l 6- BAP +0,3 mg/l IUK ½ MS+0,5 mg/l 6- BAP +0,5 mg/l Kin
	<i>Atriplex tatarica</i> <i>A. auscheri</i> <i>A. dimorphostegia</i>	Nihol (o‘simta)	MS	BAP, Kin	IUK	½ MS+ 0,5 mg/l 6-BAP +0,3 mg/l IUK ½ MS+ 0,5 mg/l 6-BAP +0,5 mg/l Kin
Ko‘p yillik o‘simliklar	<i>Halocnemum strobilaceum</i> (Pall.) M.Bieb.	Nihol (o‘simta)	MS	BAP, Kin	IUK, NUK	MS +0,5 mg/l 6-BAP +0,3 mg/l IUK MS +0,5 mg/l 6-BAP +0,5 mg/l Kin MS +0,5 mg/l 6-BAP +0,5 mg/l NUK
	<i>Salsola dendroides</i> Pall.		MS, WPM	BAP, Kin	-	MS+0,5 mg/l 6-BAP +0,5 mg/l Kin WPM+0,3 mg/l 6-BAP +0,2 mg/l Kin WPM+0,5 mg/l 6-BAP +0,5 mg/l Kin
	<i>Haloxylon aphyllum</i> (Minkw.) Iljin.					

Dissertatsiyaning “*Chenopodiaceae* o‘simliklarining tabiiy populyatsiyalarida va *in vitro* sharoitidagi regenerantlari bilan tuproq tarkibiga bog‘liq holda og‘ir metallar (OM) miqdorini o‘zaro uzviyligini aniqlash” deb nomlangan to‘rtinchi bobida 12 turdagi Zn, Cu, Cd, Mn, Co, Ni, Cr, As, Hg, U, Re, Ta og‘ir metallarning (OM) tuproqda va o‘simliklar tarkibida turli rivojlanish fazalarida to‘planishi bo‘yicha olingan natijalar muhokama qilingan. Birinchi bo‘lim “O‘zbekistonning turli geografik zonalarida tuproqlaridagi OM miqdori”ga bag‘ishlangan. Bunda tadqiqot obyektlari vegetatsiyaning boshlang‘ich davrida (aprel) tuproqda OM to‘planishi yuqori bo‘lishi kuzatildi. Biroq, havo haroratining ko‘tarilishi va jadal gullash fazasida (iyul oyi) 2020-2021-yillarda tuproqda OM miqdorining pasayishi kuzatildi. 2021-yilda tuproqlar tarkibida OM miqdori 2020-yilga nisbatan yuqori ekanligi qayd etildi (1-rasm). Mirzacho‘lda avtomobil yo‘llari va metallurgiya zavodlarining yaqinligi bu hudud tuproqlari tarkibida OM miqdorining Orolning “0” nuqta maydoniga nisbatan yuqoriligi bilan bog‘ligi izohlanadi. “0” nuqtada esa U, Re, Ta, Cd, As, Hg miqdori 0,010 mg/kg gacha bo‘lishi va hatto generativ bosqichlarida tuproqlar tarkibida bu metallar qayd etilmadi.



1-rasm. O‘zbekistonning turli cho‘l hududlari tuprog‘i namunalari tarkibidagi mavsum bo‘yicha to‘planadigan og‘ir metallar miqdori

Ikkinchi bo‘limda tabiiy populyatsiyalarda va *in vitro* sharoitida o‘simliklardagi OM tarkibi tadqiq etilgan. O‘simlik namunalari kimyoviy elementlar tahlil natijalarida, o‘rganilgan galofitlarda, hududning ifloslanish darajasi oshgani sayin rivojlanishning barcha bosqichlarida o‘simliklar tarkibida OM miqdori ham ortib borishi aniqlandi. Xususan, Mirzacho‘l vohasi o‘simliklari rivojlanishini yosh nihollik bosqichining dastlabki jarayonlarida Co, Cr va Ni ning miqdori, Orol dengizi “0” tajriba maydonidagi namunalarga nisbatan deyarli 50% ko‘p bo‘lganligi qayd etildi.


Shuningdek, barcha o‘rganilgan galofitlarning nihollik va generativ fazadagi o‘simliklari tarkibidagi Cu va Ta miqdori Orol dengizi tubining “0” nuqtasidagi bionamunalarga nisbatan qariyb 2 baravar yuqori bo‘lganligi aniqlandi. Barcha turlar uchun har ikkala o‘shish sharoitida Mn va Zn ning yer usti organlarida faol to‘planishi kuzatildi. Olingan natijalar asosida *Chenopodiaceae* o‘simliklari tuproqlarni fitoremediatsiyalashda va biologik faol qo‘shimchalar (BFQ) yaratishda foydalanish imkoniyatlari mavjudligi ilmiy asoslandi, xususan ushbu turlar OM akkumulyatsiyalovchi va og‘ir metallar bilan ifloslanishga chidamli guruhlarga ajratildi, olingan natijalar 2-jadvalda berilgan.

***Chenopodiaceae* oilasi vakillarining tuproq fitoremediatsiyasida va biologik faol qo‘shimchalar yaratishda qo‘llashga tavsiya etilgan istiqbolli turlari**

№	O‘simliklar nomi	Mirzacho‘l vohasi		Mo‘ynoq tumani
		Xovos tumani	Paxtakor tumani	
Og‘ir metallarni akkumulyatsiyalovchi I guruh o‘simliklar				
1	<i>Climacoptera intricata</i> (Iljin) Botsch*	+	+	o‘s*
2	<i>C. transoxana</i> (Iljin) Botsch.	o‘s*	o‘s*	+
3	<i>C. ferganica</i> (Drob.) Botsch.	o‘s*	o‘s*	+
4	<i>C. turgaica</i> (Iljin) Botsch.	o‘s*	o‘s*	+
5	<i>C. lanata</i> (Pall.) Botsch.	o‘s*	o‘s*	+
6	<i>Haloxylon aphyllum</i> (Minkw.) Iljin.	o‘s*	o‘s*	+
7	<i>Halostachys belangeriana</i> (Moq.) Botsch.	+	+	+
8	<i>Salicornia europaea</i> L.	+	+	+
9	<i>Suaeda heterophylla</i> (Kar. et Kir.) Bge.	+	+	o‘s*
10	<i>S. paradoxa</i> Bge.	o‘s*	o‘s*	+
11	<i>S. microsperma</i> (C. A. Mey.) Fenzl	+	+	o‘s*
12	<i>Chenopodium album</i> L.	+	+	+
13	<i>Bassia hyssopifolia</i> (Pall.) Kuntze.	+	+	+
Og‘ir metallar bilan ifloslanishga chidamli II guruh o‘simliklar				
14	<i>Atriplex tatarica</i> L.	+	+	+
15	<i>A. aucherii</i> Moq	+	+	o‘s*
16	<i>A. dimorphostegia</i> Kar. Et Kir.	o‘s*	o‘s*	o‘s*
17	<i>Suaeda altissima</i> (L.) Pall.	+	+	o‘s*
18	<i>S. arcuata</i> Bge.	o‘s*	o‘s*	+
19	<i>Salsola dendroides</i> Pall.	+	+	+
20	<i>S. orientalis</i> S.G. Gmel.	o‘s*	o‘s*	+
21	<i>Climacoptera aralensis</i> (Iljin) Botsch*	o‘s*	o‘s*	+
22	<i>C. affinis</i> (C. A. Mey.) Botsch.	o‘s*	o‘s*	+
23	<i>C. longistylosa</i> (Iljin) Botsch.	+	+	o‘s*
24	<i>Halocnemum strobilaceum</i> (Pall.) M.B.	+	+	+

Izoh: *C. intricata* (Iljin) Botsch*, *C. aralensis* (Iljin) Botsch.* . Markaziy Osiyo endemlari; o‘s*- o‘simlik o‘smaydi.

Tadqiqotlarimizda *in vitro* sharoitida yetishtirilgan regenerantlarda OM to‘planishi o‘simliklarning yosh xususiyatlariga ham bog‘liqligi aniqlandi. Xususan, nazorat MS muhitidagi regenerantlar tarkibida OM to‘planishi miqdori I-II passaj mobaynida o‘xshash nisbatlarni namoyon etdi. III-passajda yetishtirilgan *Climacoptera va Atriplex* turkumi turlari regenerantlari tarkibida OM miqdori asta-sekin kamayishi kuzatildi, ammo *Suaeda* vakillarida Zn va Mn barcha variantlarda 1,5 barobar yuqori ko‘rsatkichlarni namoyon etgani kuzatildi, olingan natijalar 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. *In vitro* sharoitida regenerant o‘simliklar tarkibidagi og‘ir metallarning (OM) to‘planish xususiyatlari


Zn miqdori boshqa metallarga nisbatan o‘rganilgan o‘simliklar tarkibida o‘zgaruvchanligi bilan alohida ajralib turdi, masalan *Suaeda arcuata* regenerantlari tarkibida tabiiy nihollarga qaraganda deyarli 1,5 baravar ko‘p to‘plangan bo‘lsa, *A.tatarica* regenerantlarida esa shuncha miqdorda rux kamligi aniqlandi. Nikel, xrom, qo‘rg‘oshin, uran, reniy va talliy kabi boshqa metallar intakt o‘simliklarda yuqori miqdorlarda to‘planishi kuzatilgan bo‘lsa, *in vitro* sharoitidagi regenerantlar tarkibida bu metallarning asta-sekin kamayishi qayd etildi, ayniqsa, III-passaj mikroklonlarida ular aniqlanmadi. O‘rganilayotgan har ikki cho‘l hududlarida (Mirzacho‘l vohasi va Mo‘ynoq) o‘suvchi barcha intakt o‘simliklar va regenerantlar tarkibida og‘ir metallarning to‘planish miqdori mey‘oriy ruxsat konsentratsiyasi (MRK) va dorivor o‘simliklar xom-ashyosida ruxsat etilgan biologik faol qo‘shimchalar (BFQ) uchun umumqabul qilingan darajadan yuqori emasligi aniqlandi. Olingan natijalar asosida fitoremediatsiyasida (og‘ir metallar bilan zararlangan) tuproqlarni *Chenopodiaceae* oilasiga mansub jami 24 turdagi vakillaridan kelajakda foydalanish imkoniyatlari mavjudligi tajribalarimizda o‘z tasdig‘ini topdi, unga ko‘ra, o‘rganilgan o‘simliklar og‘ir metallar akumulatsiyalovchi va metallar bilan ifloslangan tuproqda o‘sishga chidamli istiqbolli guruhlarga ajratildi.

Dissertatsiyaning “Tabiiy hududda va *in vitro* sharoitida *Chenopodiaceae* galofitlaridagi quyi molekulyar tabiiy birikmalarning tarkibi” nomli beshinchi bobida o‘rganilayotgan galofitlarning o‘sish joyi va rivojlanish fazasiga qarab osmolitlar to‘planish dinamikasi haqida ma‘lumotlar berilgan. Ushbu bobning birinchi bo‘limi *Chenopodiaceae* oilasi vakillarining turli xil o‘sish mintaqalarida tarqalgan galofitlardagi erkin aminokislotalarning tarkibi mavsumiy jarayonlar asosida taqqoslanib aniqlashga bag‘ishlangan natijalar keltirilgan. Ushbu tadqiqotlar jami 12 tur galofitlarda o‘tkazilib, gullash, nihollik, *in vitro* sharoitida MS va 300

mM NaCl ozuqa muhitlarida yetishtirilgan mikroklonlarda 10 ta almashinadigan va 10 ta almashinmaydigan aminokislotalar mavjudligi aniqlandi.

O‘rganilgan turlar orasida aminokislotalarning eng kam miqdori Xovos hududidan to‘plangan *Climacoptera intricata* va *C. longistylosa* turlarida qayd etildi. Mo‘ynoqdan olingan *C. lanata* va *C. aralensis* namunalarida Xovosdan yig‘ilgan o‘simliklarga nisbatan aminokislotalar miqdori 1,5 barobar ko‘p bo‘lishi aniqlandi. Dikarbon aminokislotalarning eng past miqdori *Suaeda paradoxa*, *S. altissima*, *S. microsperma* va *S. arcuate* turlarida kuzatilib, bu ko‘rsatkichlar, ehtimol, gullash davrida glutamin va asparagin kislotalarning yangi oqsillar biosinteziga ko‘proq sarflanishi bilan izohlanadi.


Xovosdan to‘plangan *S. altissima*, shuningdek, Mo‘ynoq hududidagi *S. microsperma* namunalarida *Suaeda* turkumining boshqa turlaridagiga nisbatan aminokislotalarning miqdori yuqori ekanligi aniqlandi. Aminokislotalar orasida muhim hisoblangan serin har ikkala o‘rganilayotgan mintaqadagi o‘simliklarda, xususan, *Suaeda* turkumi turlarida 1,5 barobar kam ekanligi ko‘rsatildi. Glutamin va asparagin dikarbon aminokislotalar hamda glutamin har ikkala hududdagi *Halocnemum strobilaceum* o‘simliklarda yuqori miqdorda bo‘lishi aniqlandi. Har ikkala hudud *Chenopodiaceae* oilasining barcha o‘rganilgan turlarda alanin, prolin, metionin, tirozin, arginin va fenilalaninning miqdori yuqori bo‘lishi kuzatildi. Lizin barcha o‘rganilgan o‘simliklarning xomashyosida aniqlanib, eng ko‘p miqdori *A. tatarica* turida qayd etildi. Ikki hududning *Atriplex* turkumi turlarida gullash davrida 20 ta aminokislotalarning eng ko‘p miqdorda bo‘lishi aniqlandi. NaCl stressidagi regenerantlarda erkin aminokislotalarning tarkibi ham aniqlandi va olingan natijalar 3-rasmda keltirilgan.



3-rasm. O‘zbekistonning turli cho‘l zonalari va *in vitro* sharoitlarida *Atriplex tataricada* erkin aminokislotalarning to‘planishi


3-rasmdan ko‘rinib turibdiki, gullash fazasida o‘rganilayotgan galofitlarning yer usti organlarida aminokislotalar profili ikkala sharoitda ham Pro, Met, Tyr, Phe va Lysga boy bo‘lib, ularning umumiy miqdori Xovosda 8,18 mg/g, Mo‘ynoqda esa 8,62 mg/g, yosh nihollarda esa 6,16 mg/g va 6,56 mg/g tashkil qildi. *In vitro* sharoitda NaCl ta‘sirida Asn, Pro, Met, Tyr, Phe va Lys miqdori ortdi, Gln miqdorining esa kamayishi aniqlanib, umumiy aminokislotalar miqdorida ham stressdagi mikronihollarda (12,5 mg/g) nazorat variantidagiga nisbatan (6,7 mg/g), ya‘ni 1,9 barobar ko‘p ekanligi ko‘rsatildi.

Chenopodiaceae oilasiga mansub 12 turdagi galofitlarda rivojlanishning yuvenil (balog‘atga yetmagan) bosqichida va nihollik, gullash davrida suvda eriydigan vitaminlar tarkibi taqqoslanib o‘rganildi. Gullash davrida vitaminlar yuvenil (nihollik) rivojlanish bosqichiga qaraganda, ayniqsa B₂ 1,5 barobar ko‘p miqdorda qayd etildi, olingan natijalar 4-rasmda keltirilgan.



4-rasm. O‘zbekistonning turli cho‘l hududlaridan Suaeda turkumi turlarida suvda eruvchan vitaminlar to‘planishi

O‘rganilgan barcha galofitlarda rivojlanishning hamma fazalarida tiamin miqdorining keskin pasayishi kuzatildi. Rivojlanishning nihollik bosqichida B₂ dan tashqari barcha vitaminlar ko‘p miqdorda, ammo gullash jarayoni boshlanganda, o‘rganilgan barcha galofitlarda B₁ va B₉ kamayishi kuzatildi. O‘sish davrida B guruhi vitaminlari miqdori kamayadi, bu, shubhasiz, sifat jihatidan yangi turdagi metabolizm natijasida yuzaga keladigan o‘simliklarning generativ rivojlanish jarayonlari uchun ularning sarflanishi bilan bog‘liqligi bilan izohlanadi. Bu jarayonlarni yanada chuqur tahlil qilish maqsadida, *in vitro* sharoitida o‘simlik regenerantlarda vitaminlarning to‘planish xususiyatlari qiyosiy o‘rganildi (5-rasm).





5-rasm. In vitro sharoitida Suaeda turlarida suvda eruvchan vitaminlarning to‘planishi

O‘rganilgan turlardan *Suaeda arcuate* intakt o‘simliklar gullash va nihollik davrida 0,062 mg/g miqdorda riboflavin va 0,006 mg/g tiamin, biotexnologik

materialida MS ozuqa muhitida: B₂-0,053 mg/g, B₉-0,018 mg/g, B₆-0,08 mg/g va B₁-0 mg/g miqdorlarda aniqlandi. ½MS + 1 mg/l BAP + 0,3 mg/l IAA + 2,4D + 300 mM NaCl ozuqada yetishtirilgan regenerantlarda: riboflavin - 0,73 mg/g, foliy kislotasi – 0,029 mg/g, piridoksin - 0,030 mg/g va tiamin -0,012 mg/g bo'lishi, bu miqdorlar intakt o'simliklardan deyarli ikki baravar yuqori ko'rsatkichlarni qayd etdi.

Uchinchi bo'limda *Chenopodiaceae* oilasining istiqbolli galofitlaridagi uglevodlarning tarkibi Sirdaryo viloyatida va Orol dengizi tubida o'sadigan o'rganilgan 12 turida rivojlanishining dastlabki bosqichlarida to'planishi qayd etildi. Mo'ynoq tumani o'simliklarida glyukozadan tashqari barcha uglevodlar miqdori Sirdaryo viloyatidagi o'simliklarga qaraganda yuqori bo'lishi aniqlandi. Yuvinil davrida ikkala mintaqadagi o'simliklarda uglevodlarning to'planish dinamikasi, gullash bosqichiga nisbatan 1,5 barobar yuqori bo'lishi aniqlandi. MS muhitda NaCl ning yo'qligi nazorat namunalarida o'sishining aniq pasayishiga va uglevod miqdorining kamayishiga olib keldi, bu esa ushbu guruh o'simliklarining normal rivojlanishi uchun ular o'sadigan muhitda tuzlarga nisbatan ehtiyoj mavjudligini tasdiqlaydi (6-rasm). Respublikamizning turli hududlarida to'plangan bionamunalarda *Climacoptera* va *Atriplex* mikroknihollarida uglevod tarkibining qiyosiy tahlilida 300 mM-500 mM NaCl konsentratsiyasida olingan *A. tatarica* regeneratlarda umumiy uglevodlar miqdori 0,5mg/g - 4,0mg/g ni tashkil etdi.





6-rasm. O‘zbekistonning turli cho‘l hududlari va *in vitro* sharoitida *Atriplex tatarica* turida suvda eruvchan uglevodlar to‘planishi

NaCl kontsentratsiyasi 100 – 500 mM bo‘lgan ozuqa muhirlari regenerantlar tarkibida uglevodlar miqdorining oshishiga olib keldi, MS nazoratda esa 0,7 mg/g - 2,0 mg/g gacha pasayishi kuzatildi. NaCl ning turli kontsentratsiyalari va yetishtirish sharoitlariga ega bo‘lgan optimal ozuqa muhirlarini tanlash natijasida, kurtaklar hosil bo‘lishi va rizogenez induksiyasi amalga oshib, ko‘chatlar soni ko‘payishini ta‘minlashi aniqlandi. Shu bois *Chenopodiaceae* oilasi galofitlarini *in vitro* sharoitida ko‘paytirishda maxsus biotexnologik yondashuvlar qo‘llandi.

Dissertatsiyaning “*Halocnemum strobilaceum* polifenollarining tarkibi, identifikatsiyasi va ularning biologik faolligini o‘rganish” deb nomlangan oltinchi bobida polifenollarni ajratib olish, identifikatsiya qilish, rivojlanishning turli bosqichlarida fenol birikmalar (FB) tarkibini qiyosiy tahlil qilish va polifenollar yig‘indisining biologik faolligi haqida ma‘lumotlar berilgan. Ushbu bobda ekstraksiya, YSSX va USSX-MC usullari bilan olingan ma‘lumotlar muhokama qilinadi. Gullash fazasidagi Orol dengizi tubida o‘sadigan *H. strobilaceum* o‘simlikning FB ajratib olindi va identifikatsiyalandi. Umumiy polifenollar yig‘indisi tarkibidagi 60 ta birikmadan 25 tasi (6 ta flavon, 10 ta flavanol, 2 ta flavanon, 2 ta gallotannin, 2 ta antosiyanidin) identifikatsiyalandi. Olingan natigalar 3-4-jadvallarda keltirilgan.

In vitro sharoitida ozuqa muhirlarini tanlash natijasida *H. strobilaceum* hujayra kulturalarida polifenollar miqdori nazorat o‘simliklarning mikronihollardagiga nisbatan 1,5 martaga ko‘paygani aniqlandi. Tabiiy populyatsiyadan olingan nihollar ekstraktida 7 ta polifenollar – 1 ta flavon, 4 ta flavanol, 1 ta izoflavonoid va 1 ta antosiyanidin identifikatsiyalandi. *In vitro* ning nazorat (MS) variantida fenol spektrning kamayishi kuzatilib, 4 ta polifenol aniqlandi. Stress omili bo‘lgan muhitda o‘sgan 3-passajidagi regenerantlarda esa 13 ta fenol birikmalar identifikatsiyalandi. Shuni ham ta‘kidlash kerakki, ushbu mikronihollar, gullash bosqichidagi intakt o‘simliklardagidek, tibbiy ahamiyatga ega bo‘lgan geranin, apigenin, 3-bis-O-galloyl-1,2,4,6-tetra-O-galloyl-b-D-glyukoza, izoramnetin 3-O-glyukuronid, quercetin 3-O-rutinosid va apagenin 7-O-neohesperidozid kabi polifenollarni sintez qilish qobiliyatiga ega ekanligi aniqlandi.

Halocnemum strobilaceum turining identifikatsiyalangan polifenollar ro'yxati va ularning xromato-mass-spektrometrik o'lchamlari

№	Birikmalar nomi	Chiqish vaqti	Brutto formula	[M-H] ⁻	Mass – spektrdagi qiymatlar			
					Fragmentar signallar, m/z (%)			
1	Naringenin	2,9	C ₁₅ H ₁₂ O ₅	271,105 (10)	151.005 (70)	120.05 (5)	119.051 (100)	107.014 (30)
2	Roifolin Apagenin 7-O-neogesperidozid)	2,96	C ₂₇ H ₃₀ O ₁₄	577,18 (9)	267.14 (8)	268.5 (100)	268 (43)	
3	Naringin	3,66	C ₂₇ H ₃₂ O ₁₄	579.1995 (35)	459.29 (50%)	271.09 (100)	235.09 (10)	151.09 (75)
4	((±) Katexin)	3,66	C ₁₅ H ₁₄ O ₆	289,095 (10)	182.1 (42)	107.07 (100)		
5	(Kofeoilvinnaya kislota)	8,22	C ₁₃ H ₁₂ O ₉	311,140 (15)	169,21 (100)	153,20 (10)	148,13 (35)	131,12 (45)
6	Kversetin 3-O-(6"-malonilglyukozid) 7-O-glyukozid	8,24	C ₃₀ H ₃₂ O ₂₀	711,272 (35)	667.15 (100)	462.07 (20)	299.01 (12)	
7	Kversetin 3-O-rutinozid	10.58	C ₂₇ H ₃₀ O ₁₆	609.201 (7)	301.0348 (100)	283.02 (25)	163.06 (29)	145.05 (35)
8	Kversetin 3-O-galloktozid	11.16	C ₂₁ H ₂₀ O ₁₂	463.3348 (15)	300.4 (50)	284.3 (100)	178.4 (10)	
9	Pelargonidin 3-O-(6"-malonilglyukozid	11.88	C ₂₄ H ₂₃ O ₁₃	518.99				
10	Peonidin 3-O-(6"-atsetilgalaktozid)	12.34	C ₂₄ H ₂₅ O ₁₂	504.126 (9.9)	221.06 (13.41)	175.06 (7)	145.05 (10)	59.01 (100)
11	Kversetin 3-O-(6"-malonilglyukozid)	12.35	C ₂₄ H ₂₂ O ₁₅	549.168 (45)	505.06 (85)	300.00 (100)	271.00 (55)	87.06 (15)
12	Lyuteolin 7-O-rutinozid	12.40	C ₂₇ H ₃₀ O ₁₅	593.204	448.251	287.21		

				(5)	(52)	(100)		
13	1,2,3,4,6-Penta-O-galloil-β-D-glyukoza	12.40	C ₄₁ H ₃₂ O ₂₆	939.05 (15)	769,7 (90)	617,8 (35)	447,7 (16)	169.8 (100)
14	Izoramnetin-3-O-gallaktozid-7-O-ramnozid	12.77	C ₂₈ H ₃₂ O ₁₆	623.1244 (21)	608.5 (51)	476.6 (35)	297.4 (17)	284.3 (100)
15	Kempferol 3-O-galaktozid	13.12	C ₂₁ H ₂₀ O ₁₁	447.133 (31)	283.35 (100)	267.13 (75)		
16	Izoramnetin 3-O-galaktozid	13.62	C ₂₂ H ₂₂ O ₁₂	477.1470 (20)	315.13 (21)	314.15 (100)	243.51 (27)	
17	Kempferol 3-O-atsetilglyukozid	14.53	C ₂₃ H ₂₂ O ₁₂	489.1039 (6)	429.08 (9)	285.04 (85)	267.03 (10)	59.01 (100)
18	Lyuteolin 7-O-malonilglyukozid	14.55	C ₂₄ H ₂₂ O ₁₄	533.0924 (5)	489.1 (11)	285.04 (100)	103.00 (74)	59.01 (41)
19	Apigenin 7-O-apiozilglyukozid	14.91	C ₂₆ H ₂₈ O ₁₄	563.1559				
20	Lyuteolin 7-O-glyukozid	17.09	C ₂₁ H ₂₀ O ₁₁	447.09 (11)	285.04 (100)	267.03 (14)	161.05 (7.5)	59.01 (5)
21	6"-O-Malonilglitsitin	17.32	C ₂₅ H ₂₄ O ₁₃	531.11 (7)	427.1 (15)	283.06 (100)	267.03 (45)	103.01 (91)
22	3-bis-O-galloil-1,2,4,6-tetra-O-galloil-β-D-glyukozy	18,88	C ₄₈ H ₃₆ O ₃₀	1091.12 (10)	939.4 (45)	769.13 (100)	447.03 (27)	169.01 (35)
23	Izoramnetin 3-O-glyukuronid	19,24	C ₂₂ H ₂₀ O ₁₃	491,1648 (9)	461.05 (11)	312.15 (36)	296.14 (100)	179.6 (52)
24	Xrizoeriol 7-O-(6"-malonilglyukozid)	19,84	C ₂₅ H ₂₄ O ₁₄	547,1950 (7)	299.05 (100)	283.02 (41)	103.00 (96)	59.01 (54)
25	Geraniin	21,26	C ₄₁ H ₂₈ O ₂₇	951,3464	668.02 (50)	436.21 (40)	301.05 (100)	169.78 (15)

4-jadval

Halocnemum strobilaceum turining turli o'sish muhitida sintezlangan birikmalar tahlili

Flavonoidlar guruhi	Gullash fazasi	Nihollik davri	MS	MS+0,5 mg/l 6-BAI+0,5 mg/l HYK+ NaCl 300 mM
			ozuqa muhitida etishtirilgan o'simlik-regenerantlar	
Flavonlar	Roifolin (Apagenin 7-O-neogesperidozid)	0	0	+
	Lyuteolin 7-O-rutinozid	+	+	+
	Lyuteoli 7-O-glyukozid	0	0	0
	Lyuteolin 7-O-malonilglyukozid	0	0	0
	Xrizoeriol 7-O-(6"- malonilglyukozid)	0	0	0
	Apigenin 7-O-apiozilglyukozid	0	0	+
Flavononllar	(±) Katexin)	+	+	+
	Kvertsetin 3-O-(6"- malonilglyukozid) 7-O-glyukozid	+	+	+
	Kvertsetin 3-O-rutinozid	0	0	+
	Kvertsetin 3-O-galloktozid	+	+	0
	Kvertsetin 3-O-(6"- malonilglyukozid)	0	0	+
	Izoramnetin-3-O-galloktozid-7-O-ramnozid	0	0	+
	Izoramnetin 3-O- galloktozid	0	0	0
	Izoramnetin 3-O-glyukuronid	0	0	+
	Kempferol 3-O-asetilglyukozid	0	0	0
	Kempferol 3-O-galloktozid	+	0	+
Flavanonlar	Naringenin	0	0	0
	Naringin	0	0	+
